

Amangul Utepbergenova,

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

QORAQALPOG'ISTONDA TELEVIDENIYE VA RADIOESHITTIRISH SOHASINING BARPO ETILISHI

Annotatsiya. *Maqolada Qoraqalpog'iston televideniyesi va radioeshittirish sohasining shakllanishidagi jurnalist xodimlarning ijodiy ishlari haqida qisqacha so'z yuritilgan.*

Kalt so'zlar: *televidenie, ommaviy axborot, muharrir, rejissyor, rejissyor yordamchisi, operator, ko'rsatuv.*

Аннотация. *В статье кратко рассказывается о творческих работах журналистов в формировании каракалпакского телевидения и радиовещания.*

Ключевые слова: *телевидение, массовая информация, редактор, режиссер, помощник режиссера, оператор, шоу*

Abstract. *The article briefly describes the creative work of journalists in the formation of Karakalpak television and radio broadcasting.*

Key words: *television, mass information, editor, director, assistant director, cameraman, show*

Qoraqalpog'istonda televideniye va radioning hududiy bo'linmasi, ijodiy jamoasining shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 30-yillari boshidan boshlangan. Agar birinchi jurnalistlar shoirlar, yozuvchilar, o'qituvchilar, sovet partiyalari rahbarlari bo'lgan bo'lsa, jurnalistika asoslari bo'yicha kasbiy tayyorgarlik bosma davriy nashrlar tarmog'ining shakllanishi va radioeshittirishning paydo bo'lishi bilan boshlangan. 1964-yilda teleeshittirishning paydo bo'lishi bilan jurnalistlar jamoasining shakllanishi yangi bosqichga o'tdi. Tarixshunoslik manbalariga asosan Toshkent shahridagi studiyadan efirga uzatilgan radioda qoraqalpoq tilidagi ilk ko'rsatuvlar To'rtko'lda 1932-yilda

eshittirilgan. Bu turli manbalardan olingan yangiliklar asosan qisqa xabarlar edi. Shu yili Qoraqalpog‘iston radioeshittirishlar bo‘yicha viloyat qo‘mitasi tuzilganidan so‘ng uning raisi Gavril Aleksandrovich Lexin etib tayinlandi. [1]

U bilan birga radioqo‘mitaga mahalliy vakillar – yosh jurnalistlardan Nurgali Sagitov, Jolmurza Aymurzaev, toshkentlik tajribali jurnalistlar M.Qoraxo‘jaev, A.Galiutdinovalar ishga kelishdi. O‘tgan asrning 30-90-yillarida Mirzek Kalimbetov, Kamal Shilimbetov, Xojabek Seitov, Qurbanbay Aralbaev, Babash Ismailov, Abdibay Karlibayev, Ulmambet Xo‘janazarovlar radiojurnalistlar safiga qo‘shildi.[2]

Qoraqalpog‘iston radiosida birinchilardan bo‘lib Amina Tantashova va Marka Kojhurovalar so‘zga chiqqan bo‘lsa, urushdan keyingi davrda suxandonlar safi Yunus Paxratdinov, Nikolay Medvedev, Sulushash Serdalieva, Jamol Kosjeterov, Begdulla Fayzullayev, Yo‘ldash Sharipovlar bilan to‘ldirildi. Bu yerda Sagidulla Abbazov, Tolibay Qalenderov, Ajibay Murtazayev, Joldasbay Paluaniyazov, Rasbergen Jabbarbergenov va boshqalar ham ishlagan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘nggi davrda yozuvchilar va shoirlar radioeshittirish hayotida muhim rol o‘ynashda davom etdilar, masalan, 1950-1970-yillarda Qoraqalpog‘iston radiosida adabiy-ko‘ngilochar dasturlarga ko‘proq joy berildi. Unda Abbaz Dabilov, Sadiq Nurumbetov, Tajetdin Seyitjanov, G‘alim Seytnazarov, Karamatdin Sultanov, Kenesbay Raxmanov, Shao‘dirbay Seytov va boshqalar faol ishtirok etishdi.[3]

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist M.Sa’dullaevning keltirishicha, 1980-yillari bu sohada Qoraqalpog‘istonning ziyolilari, masalan, Jolmurza Aymurzaev, Ibrayim Yusupov, To‘lepbergen Qayipbergenov, Xojabek Seytov, Tajetdin Seytjanov, G‘olim Seytnazarov, Karamatdin Sultanov, Joldas Seytnazarov, Karmis Dosanov, Babash Ismailov, Abdikerim Koshchanov, Joldasbay Dilmuradov, Janabay Saparov, Adenbay Tajimuratov, Kenesbay Raxmanov, Sharap Usnatdinov, baxshi va xonandalardan Esjan Qospolatov, Japaq Shamuratov, Gulxan Sherazieva, Toqta Raxmanova, Amet Tariyxov, Ansatbay G‘ayratdinov va boshqalar faol qatnashdilar. Ma’lumki,

televideniye ni ishlab chiqishda yetakchi rolni teledastur yoki dastur bo'limi bilan bog'liq faoliyat uchun mas'ul bo'lgan rejissyor o'ynaydi. Ular, odatda, dasturning tahririy mazmuni va ijodiy uslubi bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun javobgardir. Qoraqalpog'iston televideniyesi tashkil topgan davrda teatr va radioda tajribaga ega bo'lganlar rejissyor bo'lib ishlagan. Ular orasida Q.Abdireymov, U.Jalimbetov, K.Isaev, A.Xojanazarov, B.Matjanov, M.Eshanov, A.Qayipov, T.Qoshqarov, T.Kalimbetov va boshqa televideniye ta'sisчилari va Qoraqalpog'istonda televideniye ning ilk rejissyorlari bo'lgan.[4]

Ya'ni, Qoraqalpog'iston televideniyesi va radiosi O'zbekiston Respublikasining milliy mustaqilligi e'lon qilingan davrga kelib o'zining media-makondagi o'z o'rniga va maqomiga, katta tajribaga ega bo'lgan ijodiy salohiyatga ega edi. Mustaqillikka erishgach va uni yanada mustahkamlangan davrda yangi tashkil etilgan Qoraqalpog'iston davlat teleradiokompaniyasining shaxsiy tarkibi 271 nafar xodim va xo'jalik yurituvchi subyektlardan iborat edi. Eng muhim vazifa – Qoraqalpog'iston televideniyesi va radioeshittirish sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish, ya'ni xodimlar yangi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy muhitda o'z vazifalarini yoki ish topshiriqlarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishdan iborat edi.[5]

Mustaqillikka erishgach, Qoraqalpog'iston davlat teleradiokompaniyasining qayta tashkil etilganidan so'ng birinchi rahbar bo'lib Kenesbay Yerejepov tayinlandi. U 1941-yilda Kegeyli tumanida tug'ilgan. 1963-yilda Qoraqalpoq davlat pedagogika institutining qoraqalpoq filologiyasi fakultetini tamomlagan. 1967-1980-yillarda "Sovet Qoraqalpog'istoni" gazetasi tahririyatida ishlagan. 1983-yilda Toshkentdagi oliy partiya maktabini tamomlab, Qoraqalpog'iston televideniye va radioeshittirish davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. K.Yerejepov Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat teleradioeshittirish kompaniyasi direktori lavozimiga 1991-yil avgust oyidan boshlab 1996-yilgacha shu yerda ishlagan. Bu davrda Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi tarkibida faol jurnalistlar soni ortib borgan: muharrirlardan Joldasbay Qorazaliev, Karim Nazarbekov, Turg'anbay Madreymov, Omirbay Xojanov, Qiyatbay Madreymov,

Rasbergen Jabbarbergenov, Kengesbay Karimov, Xudaybergen Allambergenov, Alauatdin Xudaybergenov, rejissyorlardan Alpisbay Qayipov, Toreniyaz Qalimbetov, Qalbay Jumamuratov, Asan Tajimuratovlar faoliyat yuritgan. [6]

1980-yillarning oxiriga kelib Qoraqalpog‘iston televideniye va radiosida ko‘p yillar faoliyat yuritgan tajribali mutaxassislar birlashmasi shakllangan edi. Masalan, uzoq yillar respublika gazetalari tahririyatida ishlagan Rustem Dauletmuratov Qoraqalpog‘iston televideniye va radio sohasiga o‘tib, 1988-yil rais muovini lavozimiga tayinlangan. Yangi Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasi tuzilmasida direktor o‘rinbosari lavozimiga qayta tayinlanadi va shu lavozimda 1998-yilgacha ishlaydi. So‘ngra Qoraqalpog‘iston radiosi bosh muharriri lavozimida faoliyat yuritgan.

Mustaqilligimizning ilk yillarida bugungi kunda ushbu sohaning oqsoqollaridan biri hisoblangan Alauatdin Qudaybergenov oliy o‘quv yurtini tamomlagandan so‘ng televideniye va radio sohasida ish faoliyatini olib boradi, uzoq yillar radioda muharrir bo‘lib ishlaydi. O‘sha paytlar u Qoraqalpog‘iston radiosida efirga uzatilgan va tinglovchilar orasida e‘tiborga sazovor bo‘lgan “Shembi tolqinlari”, “Densawliq”, “Altin dala” va boshqa eshittirishlar muallifi sifatida keng ommaga tanilgan. 1995-yilga kelib, u Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasi direktori o‘rinbosari lavozimiga tayinlangan.[7]

Atoqli shoir Kenesbay Karimov ham ko‘p yillar Qoraqalpoq radio va televideniyesiga o‘z hayoti va ijodini bag‘ishlagan. 1994-1996-yillarda bosh muharrir o‘rinbosari, 1996-1998-yillarda Qoraqalpog‘iston televideniyesida bosh muharrir lavozimida ishlagan. 1998-2002-yillarda Qoraqalpog‘iston davlat teleradiokompaniyasi direktori o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zosi sifatida faoliyat olib borgan.

1990-yillarning o‘rtalarida Qoraqalpog‘iston televideniye va radio sohasida bir qator infratuzulmali va xodimlar tarkibida o‘zgarishlar amalga oshiriladi. Natijada uzoq yillar matbaa sanoati sohasida Nukus matbaa kombinati ustasi lavozimidan tortib, shu korxona direktori lavozimigacha mehnat qilgan Allamurat

Yesemuratov 1997-yil Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi direktori lavozimiga tayinlanib, 2002-yilgacha shu yerda ishladi.[8]

Yuqorida qayd etilgan boshqaruv tizimi xodimlari faoliyat yuritgan 1990-yillar oxiri 2000-yillar boshlarida Qoraqalpog‘iston milliy teleradiokompaniyasining faoliyatiga mamlakat hayotida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar ta’sir etganligini ta’kidlash joiz. Jumladan, qoraqalpoq xalqi o‘tmishi, ardoqli ziyolilari hayoti, madaniy va ma’naviy merosini qayta tiklash kabi mavzularga katta e’tibor qaratilgan. Radiojurnalist Dilbar Raxmanovanning ta’kidlashicha, 1990-yillarda radioda ishlagan paytlari Omirbay Xojanov, Xojabay Reymov, Xaliqnazar Abibullaevlar ijod qilgan va ko‘plab yoshlarni qo‘llab, ularning mahoratini oshirishga yordam bergan. Dilbar Raxmanovanning aytishicha, “Dastlab menga radioning musiqa va ko‘ngilochar bo‘limi boshlig‘i Perdegul Genjekeeva ustozlik qilgan, har kuni radio orqali efirga uzatiladigan konsert dasturlarini, so‘ng o‘z g‘oyalari asosida “Qosıgım – ómirim, qosıgım – baxtım”, “Óshpes hawazlar”, “Sağınış qosıqları” nomli eshittirishlar va radiokompozitsiyalarini tayyorlaganman” deydi.[9]

Shuningdek, davlat e’tibori markazida bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash mavzusi Qoraqalpog‘iston televideniye va radiosi ijodiy guruhi tomonidan yoritilgan. Jurnalist Omirbay Yembergenov “Jaslar kanali” nomli keng ko‘lamli ko‘rsatuvga asos solganligi haqida eslab, Qoraqalpog‘iston teleradiokompaniyasi tarkibida B.Nizamatdinov, A.Oteniyazova, U.Nugmanova, Sh.Ametova, A.Berdimuratova, Z.Jabbarbergenova, K.Bekbauliev kabi jurnalistlardan iborat ijodiy guruh shakllanganligini ta’kidlaydi. “Bu ijodiy guruhga boshqa jurnalistlar ham qo‘shilib, o‘z materiallarini berib ketardi. Har birining tanlagan o‘z rubrikalari bor edi. “Awhalıń qalay awıllas?”, “Egizekler”, “Uqsas atlar, uqsas tağdirler”, “Jup qosıq”, “Sinema”, “Xit parad”, “Bir qosıq tariyxı”, “Íğbal”, “Teatr hám kino”, “Sport áleminde” va boshqa rubrikalarni kuzatuvchi auditoriya kutib o‘tirardi. Shu paytlarda men kurash, futbol o‘yinlari, “Kewilli startlar” televizion sport o‘yinlarining sharhlovchisi edim”. Ammo o‘sha yillari teleradio xodimlari uchun katta muammo – texnika, asbob-uskunalarining yetishmasligi edi,

O.Yesbergenovning qayd etishicha, soatlab o'tirib, jurnalistlar kuni-tuni o'z materiallarini montajlash uchun apparatlar xonasida navbatini kutardi.[10]

Xulosa qilib aytganda, bugungi dunyo miqyosida axborot va kommunikatsion tizimlar mahsulotlarini tarqatish tizimi raqamli formatga o'tib, televideniye va radio sohasi tez rivojlanmoqda. Bu holat televideniye va radioeshittirish sohasining jurnalist va texnik kadrlarni tayyorlashga mutlaqo yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Raqamli televideniye yening yaqin kelajakda rivojlanishi ularni tayyorlash sifatiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda audiovizual ma'lumotlarni oqim sifatida emas, balki ijro etish qurilmasida oqimga aylantiriladigan fayl sifatida uzatishni ta'minlaydigan yangi standartlar ishlab chiqilmoqda. Bunga parallel ravishda katta xarajatlarni talab qiladigan yangi texnik bazaga o'tish ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. QR MDA, M-576-f. 1-ro'ux. 65-ish. – B. 26-2
2. Мадреймов Т. История возникновения и развития средств массовой информации Каракалпакстана в 1930-1990 гг.) (радиовещание и телевидение): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Нукус: 1997. – С. 10.
3. ҚР МДА, ф.12, оп.3, д.553, л.371.
4. Қарақалпақстан радиосына – 60-жыл. 1932-1992. Юбилей тўплами. – Нукус: 1992. – Б. 3.
5. M.Sa'dullayevning ma'lumoti. – Nukus: 2021.
6. D.Raxmanovanning ma'lumoti. – Nukus: 2021.
7. O.Embergenovning ma'lumoti. – Nukus: 2021.
8. A.Otepbergenovning ma'lumoti. – Nukus: 2019.
9. Айтмуратов Ж. Ғарезсизлик дәуиринде Қарақалпақстан мәдениятының раҳажланыўы (Өзбекстан хәм Қарақалпақстан тарийхын үйрениўшилерге методикалық қолланба). – Нөкис: 1999. – Б. 20.
- 10.Мадреймов Т. Қәлбим сүйген кәсип. – Нөкис: 2009. – Б. 44.
11. QR MDA, M-576-f. 1-ro'ux. 65-ish. – B. 26-27.